

# MUHANDISLIK

## & IQTISODIYOT

# №7

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

# 2025 IYUL



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 - Texnika fanlari

08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB<sup>®</sup>  
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic Resource Index  
ResearchBib

ISSN INTERNATIONAL STANDARD SERIAL NUMBER INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ БИБЛИОТЕКА LIBRARY.RU

**ECONOMIC**  
Business | Finance | Investment

UZBEKISTAN

РЭУ.РФ  
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ  
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА  
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



# muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

## Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

## Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

## Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Muhammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.



# muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- |  |  |
|--|--|
| <p>05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi</p> <p>05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari</p> <p>05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash</p> <p>05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari</p> <p>05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti</p> <p>05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi</p> <p>05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari</p> <p>05.01.07 – Matematik modellashtirish</p> <p>05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt</p> <p>05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik</p> <p>05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari</p> <p>05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti</p> <p>05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash</p> <p>05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi</p> <p>05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari</p> <p>05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari</p> <p>05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi</p> | <p>05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish</p> <p>05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar</p> <p>05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari</p> <p>10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik</p> <p>10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti</p> <p>08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi</p> <p>08.00.02 – Makroiqtisodiyot</p> <p>08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti</p> <p>08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti</p> <p>08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti</p> <p>08.00.06 – Ekonometrika va statistika</p> <p>08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit</p> <p>08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit</p> <p>08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti</p> <p>08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti</p> <p>08.00.11 – Marketing</p> <p>08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot</p> <p>08.00.13 – Menejment</p> <p>08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari</p> <p>08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti</p> <p>08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya</p> <p>08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati</p> |
|--|--|

Ma'lumot uchun, OAK  
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

**Muassis:** "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

**Hamkorlarimiz:**

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



# MUNDARIJA

Yashil ish o'rinlari va ekologik ta'lim: o'zbekiston yoshlari uchun yangi imkoniyatlar .....	12
<b>Rashidov Saidislom, Zaripova Mardona</b>	
Soliqlarni to'lashdan bo'yin tovlash holatlarining informatsion assimetriyaga ta'siri .....	16
<b>Babanazarova Nilufar Xolmatovna</b>	
Iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda budget mablag'laridan foydalanish mexanizmining o'rni va ahamiyati .....	23
<b>Rustamova Gulmira Aliqulovna</b>	
Dasturiy mahsulotlar logistikasi .....	30
<b>Uzaqov Ortik Shaymardanovich</b>	
Banklarda moliyaviy barqarorligini ta'minlashda moliyaviy natijalar ahamiyati .....	35
<b>Djalilov G'ayrat Qaxramanovich</b>	
Oliy ta'lim muassasalarini "yashil universitet" tizimiga transformatsiya qilish istiqbollari (buxoro davlat texnika universiteti va malayziyaning oliy ta'lim muassasalari o'rtasidagi hamkorlik misolida) .....	39
<b>Rahmatov Shuxrat Axatovich</b>	
Davlat qarzi siyosati samaradorligini oshirish orqali makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash .....	43
<b>Sayfutdinov Xasanboy Dilshodovich</b>	
Оптимизация бизнес-процессов и модернизация занятости в условиях цифровизации .....	47
<b>Явкачев Шохзод Зайниддин углы</b>	
Strategik rivojlanish sharoitida investitsion jozibadorlikning o'rni .....	54
<b>Otaboyev Axmed Maxsudbek o'g'li</b>	
Kichik biznes subyektlarini moliyalashtirishni rag'batlashtirish .....	61
<b>Annaklichev Saxi Saparmuxamedovich</b>	
Альтернативный подход к распределению финансовых ресурсов для эффективного финансирования высшего образования .....	65
<b>Гулшат Карлибаева</b>	
Banklarda moliyaviy barqarorligini ta'minlashda moliyaviy natijalar ahamiyati .....	70
<b>Djalilov G'ayrat Qaxramanovich</b>	
O'zbekistonda jahon sivilizatsiyasiga ta'sir o'tkaza oladigan zamonaviy qarashlarga ega memolarning yetishmasligi .....	74
<b>Nabiyev Hamidjon Mirzo o'g'li</b>	
General Concept and Principles of Quality Management System .....	78
<b>Atamirzayev Nodirbek Bekmirzayevich</b>	
Transformatsiya jarayonida tijorat banklarining kreditlash faoliyatini rivojlantirish .....	84
<b>Absamatov Anvar Ergashovich</b>	
Интегральный показатель отбора экспертов для принятия коллегиальных диагностических решений .....	94
<b>Uraqov Shokir Ulashovich</b>	
Korxonada faoliyatini tahlil qilishda boshqaruv hisobining roli .....	100
<b>Abdurasulov Xumoyun Jalil o'g'li, Axmedov Xasan Ruzibayevich</b>	
Raqamli iqtisodiyot va buxgalteriya hisobini tashkil etish .....	107
<b>Abdullayev Abdurauf</b>	
Moliyaviy hisobotni transformatsiya qilish .....	112
<b>Sheraliyev Xayrulla Karimovich</b>	
O'zbekiston sharoitida raqamli transformatsiyaning makroiqtisodiy indikatorlarga ta'siri .....	116
<b>Samarqand davlat uiversiteti, Kuldoshev Lazizjon Sharifovich</b>	



Raqamli iqtisodiyotning turizm sohasidagi bandlik shakllariga ta'siri.....	120
<b>Rasulova Muxabbat Teshabayevna, Normurodov Sarvar Norboy o'g'li</b>	
Xalqaro moliya-kredit institutlari bilan hamkorlikning xorij tajribasi.....	126
<b>Qosimov Bobur Sobirovich</b>	
Jahonda moliyaviy munosabatlar rivojlanishida korporativ tuzilmalar faoliyatining o'rni .....	131
<b>Kurbaniyazov Shaxzodbek Karimovich</b>	
Iqtisodiyotning real sektor subyektlarining faoliyatini moliya-kredit mexanizmlari orqali rag'batlantirishning xalqaro tajribasi .....	136
<b>Mahmudov Nurali Komilovich</b>	
O'zbekiston sharoitida raqamli transformatsiyaning makroiqtisodiy indikatorlarga ta'siri .....	140
<b>Sanakulova Iroda, Kuldoshev Lazizjon Sharifovich</b>	
Sho'r suvni chuchuklashtirish uchun absorber sifatida foydalanilgan quyosh elementlari tuzilmasining tajriba sinov tahlillar .....	144
<b>Tursunov Muxamad Nishanovich, Sabirov Xabibullo, Axtamov Tohir Zuxriddinovich, Abriyev Shaxzod Akbar o'g'li, Bobomuratov Sardor Abdurasul o'g'li</b>	
Развитие банков в системе цифровых финансовых услуг в Республике Узбекистан.....	151
<b>Даденова Гульхан Кенесбаевна</b>	
Внедрение экологических стандартов в транспортной системе: проблемы и перспективы .....	156
<b>Абдурахманова М.Т.</b>	
Elektron o'quv kontenti orqali mustaqil ta'lim va tadqiqot faoliyatini rivojlantirish.....	162
<b>Ahunova Tamannoxon Zokir qizi</b>	
Raqamli transformatsiya sharoitida davlat va xususiy sektorda korporativ boshqaruv strategiyasini yangilash: O'zbekiston modeli .....	167
<b>Tojaliyev Sherdorbek Elmurod o'g'li, Ergashev Axmadjon Maxmudjon o'g'li</b>	
Jismoniy shaxslar uchun aksiyalar bozoriga kirish strategiyalari va investitsiya imkoniyatlari: O'zbekiston va xalqaro tajriba tahlili .....	171
<b>O'raqov Bekzodbek Abdurayxon o'g'li</b>	
Energetika tarmog'ida moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini (mhxs) joriy etishning nazariy asoslari .....	176
<b>Uralov Temur Boxodir O'g'li</b>	
Nodavlat notijorat tashkilotlarini mablag'larini shakllanishi va nazorat qilinishi .....	181
<b>Xolbekov Ulug'bek Toshpulat o'g'li</b>	
Oliy ta'lim muassasalarining xalqaro reyting ko'rsatkichlarini oshirishning strategik boshqaruv mexanizmlari .....	185
<b>Mamajonova Muxlisaxon Muzaffar qizi</b>	
Economic Efficiency of Digital Twin and Bim Technologies in Construction Enterprises.....	189
<b>Nigmatjonova Nozima Ulmasjonovna</b>	
Uzumchilikka ixtisoslashgan xo'jaliklarning iqtisodiy samaradorligini oshirish yo'llari .....	197
<b>Tursunov To'fqin Jo'raqulovich</b>	
Совершенствование проверки налогового аудита в Узбекистане .....	202
<b>Юсупов Мансур Расулович</b>	
Navoiy viloyatida mehnat resurslaridan foydalanishni ekonometrik modellashtirish usullari .....	207
<b>Hamroyev Anvar Ashurovich</b>	
Texnika fanining bugungi kunda o'rni va ahamiyati .....	214
<b>Ulasheva Shaxlo Tagayevna, Xujamurotova Mashxura G'ayrat qizi</b>	
Globalashuv sharoitida mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash masalalari.....	219
<b>Nurmurodov Olmos Eshmuradovich</b>	
Banklarda xalqaro hisob-kitoblar hisobini takomillashtirish .....	226
<b>Uzaqova Gulmira Yuldashovna</b>	



Korxonalar mehnat unumdorligiga ta'sir etuvchi asosiy omillar va ularning o'zaro bog'liqligi. (artel korxonasi misolida) .....	230
<b>Abdug'aniyev Ilyosbek Shavkatbek o'g'li</b>	
Gaz sanoatiga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning moliyaviy jihatlari .....	238
<b>Ergashev Muhibbek Aslam o'g'li</b>	
Namangan viloyatida investitsiya faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari.....	242
<b>Inamov Farxodjon Ikrom o'g'li</b>	
Математическое моделирование кинематики движения шаров различного размера в барабанных мельницах .....	246
<b>Акмал Жуманазаров</b>	
Влияние «зеленых» инвестиций на устойчивое экономическое развитие: теоретические и прикладные аспекты .....	253
<b>Исомов Б. С.</b>	
Bozor xizmatlari ko'rsatish sohasini innovatsion rivojlantirishning konseptual asoslarining shakllanish xususiyatlari .....	260
<b>Alimdjanova Oydin Nodirovna</b>	
Korxonalar faoliyatida yashil marketing strategiyalarini qo'llash imkoniyatlari.....	266
<b>Rahmatov Dilshod Shermat o'g'li</b>	
Sanoatda raqamli egizak texnologiyalarining o'rni .....	271
<b>Ibragimov Sanjarbek Salijanovich</b>	
Qishloq xo'jaligida yer resurslaridan foydalanishda xorijiy tajribalar va ularning ahamiyati .....	278
<b>Shixiyev Raxim Muhammedovich</b>	
Mamlakatda yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashishning amaliy jihatlari.....	285
<b>Raxmonov Lochin To'xtamishovich</b>	



# MAMLAKATDA YASHIRIN IQTISODIYOTGA QARSHI KURASHISHNING AMALIY JIHATLARI



## Raxmonov Lochin To'xtamishovich

PhD, Osiyo texnologiyalar universiteti rektori

ORCID:0000-0003-3436-5924

E-mail: [lochinbek.r@gmail.com](mailto:lochinbek.r@gmail.com)

**Annotatsiya:** Maqolada yashirin iqtisodiyotning fiskal barqarorlik va o'sishga ta'siri, sabab omillari hamda unga qarshi kurash strategiyalari tahlil qilinib, raqamlashtirish, soliq boshqaruvida shaffoflik va xalqaro hamkorlik orqali uni qisqartirish imkoniyatlari yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** yashirin iqtisodiyot, norasmiy sektor, soliq ma'murchiligi, raqamlashtirish, axborot izlari, xalqaro hamkorlik, fiskal barqarorlik, iqtisodiy o'sish.

**Abstract:** The article analyzes the impact of the shadow economy on fiscal stability and growth, its causes, and strategies for combating it, and highlights the possibilities for reducing it through digitalization, transparency in tax administration, and international cooperation.

**Keywords:** shadow economy, informal sector, tax administration, digitalization, information traces, international cooperation, fiscal stability, economic growth.

**Аннотация:** В статье анализируется влияние теневой экономики на фискальную стабильность и рост, причины его возникновения и стратегии борьбы с ним, а также освещаются возможности его сокращения посредством цифровизации, прозрачности налогового администрирования и международного сотрудничества.

**Ключевые слова:** теневая экономика, неформальный сектор, налоговое администрирование, цифровизация, информационные следы, международное сотрудничество, фискальная стабильность, экономический рост.

## KIRISH

Yashirin iqtisodiyot oshkora payqab bo'lmaydigan tovarlar va xizmatlarni ishlab chiqarish, taqsimlash, ayirboshlash, iste'mol jarayonlari - iqtisodiy munosabatlar bo'lib, uning negizida ayrim kishilar yoki kishilar guruhi manfaatlarini yotadi. Yashirin iqtisodiyot dunyoning deyarli hamma mamlakatlarida mavjud. Xufiyona iqtisodiyot - ishtirokchilar tomonidan oshkora olib borilmaydigan, davlat va jamiyat tomonidan nazorat qilinmaydigan, soliqlar to'lanmaydigan, rasmiy davlat statistikasida qayd etilmaydigan iqtisodiy jarayonlar, iqtisodiy faoliyat turlaridir.

Aylanma xufiyona bo'lganidan uning aniq hisob-kitobi bo'lmaydi. Buning o'rni- ga uni taxminan baholash usuli qo'llaniladi. Ayrim hisob-kitoblarga ko'ra, o'tgan asr oxirlarida yer yuzidagi yashirin iqtisodiy aylanma 8 trln. dollarga yoki jahon yalpi mahsulotining 27,5% ga teng bo'lgan. Biroq yashirin iqtisodiyot miqyosi turli mamlakatlarda farqlanadi. Yashirin iqtisodiyot eng rivojlangan mamlakatlarga Lotin Amerikasi va Afrika mamlakatlari kiradi. 1999-yil Misr va Nigeri- yada yashirin iqtisodiyot yalpi ichki mahsulotning 70% ga teng bo'ldi. Yashirin iqtisodiyot hissasi eng kam bo'lgan mamlakat Osiyoda Yaponiya (1-2%), G'ar- biy Yevropada Shveysariya hisoblanadi. MDH mamlakatlarida yashirin iqtisodiyot darajasi o'rtacha. Dunyoning rivojlangan mamlakatlarida, masalan, AQSH va Italiyada yashirin iqtisodiyotning yalpi ichki mahsulotdagi hissasi tegishli 6,4 va 11,4% ni tashkil etdi (1997). 21-asrga kelib iqtisodiyotning globallashuvi oqibatida yashirin iqtisodiyot

milliy doiradan chiqib, xalqaro darajaga ko'tarildi. Yashirin iqtisodiyot globallasuvi bu bir mamlakatdagi yashirin iqtisodiyot boshqa mamlakatga ko'chirilishida, nojo'ya biznes ishlari bilan shug'ullanuvchi xalqaro firmalarning paydo bo'lishida ko'rinadi. Bunga misol qilib xalqaro narkobiznesni, yashirin qurol savdosini, ishchi kuchining yashirin migratsiyasini uyushtirishni, offshor zonalar orqali g'ayriqonuniy yo'llar bilan topilgan pulni "halolab" olish kabilarni ko'rsatish mumkin. Bular xalqaro hamjamiyatga katta xatar tugdiradi. Pulni chet mamlakatga yashirin chiqarib "halolab" olishga qarshi kurash maqsadlarida xalqaro hamjamiyat maxsus tashkilot - Xalqaro moliyaviy harakatlar guruhini tashkil etgan.[1]

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Mahalliy tadqiqotchi M.Choriev [2] maqolasida ta'kidlanishicha, soliq yukining yuqoriligi norasmiy sektorga o'tishga undaydi. Shu bois, soliq stavkalarini pasaytirish (masalan, QQS 15% dan 12% gacha tushirilishi) va to'lov jarayonlarining qulayligini oshiruvchi raqamli hisob-kitob tizimlarini keng joriy etish orqali yashirin iqtisodiyot sezilarli darajada qisqargan.

D.Pomeranz[3] tadqiqotida Chili QQS tizimida uchinchi tomon tekshiruvchi zanjiri va ogohlantiruvchi xatlarning ta'sirini tasodifiy tajriba hamda ma'muriy ma'lumotlarda baholaydi. Natijalar: soliq organidan yuborilgan xatlar QQS tushumlarini oshiradi; ta'sir ayniqsa yetkazib beruvchi-mijoz bo'g'inida hisobotlar o'zaro moslashtiriladigan firmalarda kuchliroq. "Qog'oz izi" sust bo'lgan joyda esa firmalar boshqa rubrikalarda yashirishga urinadi. Amaliy dars: e-hisob-faktura va real-vaqt kross-tekshiruvni riskga asoslangan kompaniyalar bilan uyg'unlashtirish zarur.

J.Naritomi[4] o'z ilmiy izlanishida San-Paulu "Nota Fiscal Paulista" dasturida iste'molchini kvitansiya talab qilishga rag'batlantirish (lotereya/mukofot) rasmiy savdo hajmini sezilarli oshirishini ko'rsatadi. Mikroma'lumotlar savdo va soliq bazasining kengayishini, ayniqsa kichik chakana segmentlarda, hujjatlashtiradi; rag'batlar sustlashsa ta'sir pasayadi. Dastur uchinchi tomon ma'lumotini ko'paytirib, iste'molchining "mayda auditor" sifatidagi rolini faollashtiradi. Amaliy jihat: e-kvitansiya, cashback va lotereyani antifraud tekshiruvlari bilan bir paketda joriy etish samaraliroq.

P.Carrillo va hamkasblari[5] maqolasida Ekvadorda audit xatlari tajribasi firmalarning hisobotini oshirsa-da, ularning ba'zilari nazorat qattiqlashgan satrlarni boshqa rubrikalar bilan "o'rnini bosish" orqali yashirishini ko'rsatadi. Uchinchi tomon bilan bog'langan operatsiyalarda compliance kuchli, o'z-o'zini deklaratsiya qilinadigan pozitsiyalarda esa manipulyatsiya yuqoriroq. Bu enforcement chegaralarini ochib beradi: keng qamrovli uchinchi-tomon moslashtiruvlari, xarajatlar tuzilmasi monitoringi va sektoral riskga mos audit talab etiladi.

H.Kleven va hammualliflar[6] tadqiqotida Daniyada 40 mingdan ortiq soliq to'lovchilar bilan o'tkazilgan randomizatsiyalangan audit tajribasi uchta xulosani beradi: (i) uchinchi tomon hisobotiga tayanadigan daromadlarda yashirish deyarli nol; (ii) o'z-o'zini deklaratsiya qilinadigan daromadlarda yashirish sezilarli; (iii) avvalgi audit va audit tahdidi xatlari o'z-o'zini deklaratsiya ko'rsatkichlarini oshiradi, biroq uchinchi-tomon daromadlariga ta'sir qilmaydi. Amaliy jihat: uchinchi-tomon izini kengaytirish va maqsadli tahdid xatlari orqali compliance'ni tejamkor kuchaytirish.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqot ishlarini amalga oshirishda ilmiy tadqiqot metodologiyasida keng qo'llaniladigan usullardan foydalanildi. Ilmiy tahlil jarayonida ana shu ilmiy tadqiqot usullaridan, xususan, kuzatish, umumlashtirish, guruhlash, taqqoslash, tahlil qilishda esa sintez va tahlil usullaridan keng foydalanildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Kuzatilmaydigan iqtisodiyot – doimiy statistika kuzatuvlarida to'liq yoki qisman qamrab olinmagan, shuningdek, statistika ko'rsatkichlarida aks ettirishda bilvosita usullar orqali baholanadigan iqtisodiy faoliyat turlari.

Norasmiy iqtisodiyot – uy xo'jaliklari yoki jismoniy shaxslar tomonidan belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tmagan holda amalga oshiriladigan ishlab chiqarish (xizmat ko'rsatish) bilan bog'liq iqtisodiy faoliyat.

Yashirin iqtisodiyot – qonun bilan man etilmagan, ammo soliqqa tortilmaslik va qonun hujjatlari talablariga rioya qilmaslik maqsadida davlat organlaridan ataylab berkitilgan iqtisodiy faoliyat.

Milliy statistika qo'mitasiga ko'ra, 2024-yil yakunlariga ko'ra, O'zbekistonda kuzatilmaydigan (norasmiy va yashirin) iqtisodiyotning yalpi qo'shilgan qiymati hajmi 505,6 trln so'mni va uning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 34,8 % ni tashkil etdi. Shundan norasmiy iqtisodiyotning yalpi qo'shilgan qiymati hajmi 383,6 trln so'mni va uning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 26,4 % ni tashkil etdi. Yashirin iqtisodiyotning yalpi qo'shilgan qiymati



hajmi esa 122,0 trln soʻmni va uning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 8,4 % ni tashkil etdi. Kuzatilmaydigan iqtisodiyotning eng katta ulushi qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaliklariga toʻgʻri keladi (63,6%).[7]

Soya iqtisodiyotning ildiz sabablari koʻp qatlamli: haddan tashqari naqd pul aylanishi, shartnomalarni majburiy ijro etishdagi zaifliklar, yuqori tranzaksiya xarajatlari, soliq maʼmurchiligining murakkabligi, davlat xaridlari va litsenziyalashdagi asimetriyalar, korrupsiya xatarlarining mavjudligi va ijtimoiy sugʻurtaga kirish imkonlarining torligi shular jumlasidan. Xalqaro moliya institutlari Oʻzbekistonda davom etayotgan bozor islohotlari kontekstida norasmiy ishchilarni formallashtirishga oʻtish mexanizmlarini kuchaytirish, bandlik sifati va ijtimoiy himoya bilan bogʻlangan ragʻbatlarni kengaytirish zarurligini koʻrsatadi.

Soʻnggi yillarda fiskal islohotlar yashirin iqtisodiyotni “ochiq qilish”ga xizmat qiluvchi mexanizmlarni sezilarli darajada kengaytirdi. Muhim choralaridan biri sifatida 2023-yil 1-yanvardan qoʻshilgan qiymat soligʻi stavkasining 15 foizdan 12 foizga tushirilishi boʻldi. Bu qaror, bir tomondan, narxlar zanjirida rasmiylashtirishga ragʻbatni kuchaytirgan boʻlsa, ikkinchi tomondan, fiskal betaraflikni saqlagan holda soliq bazasini kengaytirish imkonini yaratdi. Qoʻshilgan qiymat soligʻini qaytarish tartibi soddalashtirildi va tezlashtirildi; aylanmadan olinadigan soliq, soddalashtirilgan tartiblar hamda ayrim yoʻnalishlarda past stavkali rejimlar kichik tadbirkorlik subyektlari uchun rasmiy sektorda faoliyat yuritish xarajatlarini kamaytirdi. 2024—2025-yillarda soliq tekshiruvlari boʻyicha daʼvo muddati va hujjatlarni saqlash majburiyatining qisqartirilishi, maʼmuriy yukning kamaytirilishi esa hamkorlikka asoslangan “koʻproq xizmat — kamroq jazolash” modeliga oʻtishda muhim ishora boʻldi.

Yashirin aylanmani qisqartirishdagi asosiy yoʻnalish — raqamli soliq nazorati va real vaqt rejimidagi tranzaksiyalarni izchil kuzatishdir. 2025-yil may oyidan boshlab tadbirkorlarning onlayn-nazorat kassa mashinalari hamda virtual kassalardan foydalanishi, xaridorga QR-kodli soliq cheki taqdim etishi majburiyigi yana bir bor taʼkidlandi. Bu talab “hisob-kitobni yashirish” imkoniyatlarini keskin cheklaydi hamda isteʼmolchini ham nazorat jarayonida ishtirok etuvchi subyektga aylantiradi (chekni tekshirish, qaytariladigan toʻlov olish). Bundan tashqari, qoʻshilgan qiymat soligʻi tushumlari zanjiri boʻylab integratsiyalashgan elektron chek va fiskal maʼlumotlar soliq organlariga xavfga asoslangan avtomatik tahlil imkonini beradi.

Isteʼmolchi uchun kuchli ragʻbat sifatida “Soliq” mobil ilovasi orqali chekni roʻyxatdan oʻtkazganlarga 1 foiz miqdorida qaytariladigan toʻlov (cashback) mexanizmi joriy qilindi. Bu qisqa muddat ichida millionlab cheklar rasmiy muomalaga kirishini taʼminladi. Masalan, 2022-yilning dastlabki ikki haftasida 401 mingdan ortiq QR-kodli chek roʻyxatga olinib, 5 milliard soʻmdan ziyod mablagʻ qaytarildi; yil oxirida esa umumiy miqdor 773 milliard soʻmga yetgani haqida statistik maʼlumotlar eʼlon qilindi. 2023-yilda shaxsni aniqlash jarayonlari kuchaytirildi (yuzni tanish tizimi va kunlik cheklovlar), 2024-yilda esa suiisteʼmollarning oldini olish maqsadida oylik maksimal qaytariladigan toʻlov miqdoriga chegaralar belgilandi. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining 2023-yilgi tahliliy hisobotida Oʻzbekiston tajribasi isteʼmolchining “chek talab qilish”ga ragʻbatlantirilishi orqali rasmiylashtirish jarayoniga ijobiy taʼsir koʻrsatgan ilgʻor amaliyot sifatida qayd etildi. Bu mexanizmning afzalligi shundaki, u maʼmuriy tekshiruvlarga tayanmasdan, bozor tamoyillari orqali “ruxsat etilgan foyda”ni rasmiy sektorga bogʻlaydi.

“Chek–cashback” mexanizmi faqat soliq kvitansiyasi bilan cheklanmaydi. U raqamli markirovka tizimi bilan bogʻlanganida “soxta mahsulot–noqonuniy aylanma–soliqdan qochish” zanjirini uzadi. Oʻzbekistonda 2019-yildan buyon Turon markazlashtirilgan tizimi bilan davlat-xususiy sheriklik asosida milliy raqamli markirovka (“Asl Belgisi”) tizimi joriy etildi. Bugungi kunda tamaki, alkogolli ichimliklar (shu jumladan pivo), ayrim maishiy texnika vositalari, dori-darmonlar va tibbiyot buyumlari hamda ichimlik suvlari va alkogolsiz mahsulotlar majburiy markirovka qamroviga kiritilgan. Tizim DataMatrix kodlari orqali mahsulotning ishlab chiqaruvchidan isteʼmolchigacha boʻlgan barcha bosqichlarini kuzatadi. U soliq va bojxona maʼlumotlari, elektron schyot-faktura hamda onlayn-kassa tizimlari bilan integratsiyalashgani bois, “oqimni yashirish” (masalan, hisob-fakturasiz sotuv) deyarli imkonsiz boʻlib qolmoqda. “Asl Belgisi” va “Soliq” mobil ilovasi orqali fuqarolar mahsulot haqiqiylikini tekshirishlari hamda shubhali holatlar haqida xabar berishlari mumkin. Operatorlar va vakolatli organlar hisobotlariga koʻra, minglab tadbirkorlar tizimga ulangan, millionlab kodlar muomalaga chiqarilgan, tovar nomlari reestri kengaymoqda. 2025-yilda tibbiy buyumlar uchun markirovka majburiy ravishda joriy qilindi, ayrim yangi mahsulot guruhlari boʻyicha tajriba loyihalari eʼlon qilindi. Bu yoʻnalish yashirin aylanmani “logistika–ulgurji–chakana” bosqichlarida qisqartirish uchun eng samarali texnologik vositalardan biridir.

Soya iqtisodiyotining muhim yoʻnalishlaridan biri — davlat aktivlari va yer huquqlariga oid bitimlarning norasmiy kelishuvlar orqali amalga oshirilishi edi. Oʻzbekistonda “Elektron auksion” savdo platformasi joriy etilib, davlat mulki obyektlari, yer uchastkalari, ayrim huquqlar, raqamlar va boshqa aktivlar boʻyicha savdolar onlayn, shaffof va raqobat asosida oʻtkazilmoqda. 2021-yilda Prezident qarori bilan yagona tartib belgilandi: ishtirokchilarga elektron raqamli imzolar bepul berilishi, eʼlondan oldingi muddatlar, onlayn jarayonlar va huquqlar kafolatlari tartibga solindi. Keyinchalik ushbu platformaning huquqiy asoslari va amaliy usullari yanada takomillashtirildi. Jahon banki hujjatlarida shahar yerlarini ham onlayn auksionlar orqali xususiyashtirish koʻzda tutilgani qayd etiladi. Bu esa “yer bozori–qurilish–kommunal xizmatlar” zanjirida shaffoflikni oshirib, yashirin bitimlar imkoniyatini keskin toraytiradi. Bugungi kunda platformada real vaqt rejimidagi lotlar, hududlar boʻyicha



savdolar, mobil ilova va foydalanuvchilar uchun qulay interfeyslar faoliyat yuritmoqda — bu esa barcha ishtirokchilar uchun teng sharoit va kuzatiluvchanlikni kafolatlaydi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Tahlillardan ko'rinib turibdiki, yashirin iqtisodiyotni qisqartirish imkonsiz emas. Buning uchun puxta o'ylangan, bosqichma-bosqich amalga oshiriladigan puxta strategiya kerak. Bunday strategiyaga erishishda albatta birinchi nav- batda aholining iqtisodiy savodxonligini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Agar aholiga xufiyona iqtisodiyotning salbiy asoratlari muntazam ravishda tushuntirib borilsa, bu orqali xufiyona iqtisodiyot ma'lum darajada bartaraf etishga erishilishi mumkin.

Axborot texnologiyalardan keng foydalangan holda tashkilotlar tomonidan manfaatlar to'qnashuvi va korrupsiya holatlarini oldini olish maqsadida ma'lumotlar bazasini shakllantirish muhimdir. Tashkilotlar o'rtasida ma'lumotlar almashinuvida to'laqonli axborot almashishiga erishish orqali yashirin iqtisodiyotni tartibga solish va davlat budjetiga soliqlarning belgilangan muddatlarda tushishiga hamda soliq solishning adolatlilik prinsipi ta'minlanilishiga erishish mumkin. Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, yashirin iqtisodiyotni kamaytirish uchun soliq tizimini soddalashtirish, naqd pulsiz hisob-kitoblarni joriy qilish va monitoring tizimlarini kuchaytirish eng samarali usullardan biridir. Ushbu muammolarga kompleks yondashuv orqali yashirin iqtisodiyot ulushini sezilarli darajada kamaytirish mumkin.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. <https://cyberleninka.ru/article/n/yashirin-iqtisodiyotning-jamiyatga-tasiri>.
2. Choriev, M. (2025). Yashirin iqtisodiyotni kamaytirishda soliq yukini pasaytirish va raqamlashtirishning ahamiyati. Green Economics Development. <https://green-eco.uz/index.php/GED/article/download/4863/3179>
3. Pomeranz, D. (2015). No Taxation Without Information: Deterrence and Self-Enforcement in the Value Added Tax. American Economic Review, 105(8), 2539–2569. <https://doi.org/10.1257/aer.20130393> [aeaweb.org](http://aeaweb.org)
4. Naritomi, J. (2019). Consumers as Tax Auditors. American Economic Review, 109(9), 3031–3072. <https://doi.org/10.1257/aer.20160658> [aeaweb.org](http://aeaweb.org)
5. Carrillo, P., Pomeranz, D., & Singhal, M. (2017). Dodging the Taxman: Firm Misreporting and Limits to Tax Enforcement. American Economic Journal: Applied Economics, 9(2), 144–164. <https://doi.org/10.1257/app.20140495> [aeaweb.org](http://aeaweb.org)
6. Kleven, H. J., Knudsen, M. B., Kreiner, C. T., Pedersen, S., & Saez, E. (2011). Unwilling or Unable to Cheat? Evidence from a Tax Audit Experiment in Denmark. Econometrica, 79(3), 651–692. <https://doi.org/10.3982/ECTA9113> [Online Library](http://online.library)
7. Sangirova, G. A., et al. (2021). The geographical distribution of the shadow economy and its decline in Uzbekistan. ResearchGate. <https://www.researchgate.net/publication/350178323>
8. Erkabaevich, R. L. (2025). Foyda solig'ida moliyaviy instrumentlardan foydalanish orqali yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashish. EconfSeries. <https://econfseries.com/index.php/2/article/view/322>
9. Solidjonov, D. M., et al. (2021). Iqtisodiyotni raqamlashtirish sharoitida naqdsiz to'lovlarni kengaytirish orqali yashirin iqtisodiyotni oldini olish. ResearchGate.
10. <https://oz.sputniknews.uz/20250203/ozbekiston-norasmiy-yashirin-iqtisodiyot-infografika-47810722.html>

# **muhandislik**

# **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir Alibekov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2025. № 7**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan  
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi  
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan  
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: №095310.**

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod  
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



[t.me/yait\\_2100](https://t.me/yait_2100)